



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

4. A.T.Mirzayev. O‘zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T.: TDIU. 2021. – 254-b.
5. Arzimatov B.Z. Turizm sohasida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent. 2025-yil. -151-bet.
6. Мирзаев А.Т. Оценка использования рекреационных возможностей на рынке туристических услуг // Региональная экономика: теория и практика. – 2019. – Т. 17, № 5. – С. 990 – 1002. <https://doi.org/10.24891/re.17.5.990>.
7. Mirzaev A. T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. – pp.131-137. <https://doi.org/10.36713/epra4790>.
8. Mirzaev, A. T. (2020). Assessment of cluster formation in management of recreational activity. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 605-610. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.04.84.101>

UDK:334.02

**MILLIY IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING
BARQARORLIGINI TA‘MINLASHNING ILMIY ASOSLARI**

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЕЕ УСТОЙЧИВОСТЬ**

**SCIENTIFIC BASES OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN THE NATIONAL
ECONOMY AND ENSURING ITS SUSTAINABILITY**

Mannopova Muazzamxon Sultonbekovna

Farg‘ona davlat universiteti Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasida dotsenti.

Usibjonova Gulsanamxon Ulug‘bek qizi

Farg‘ona davlat universiteti, inson resurslarini rivojlantirish yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlik rivojlantirishning ilmiy asoslari, uning salohiyatini oshirishning ahamiyati, amalga oshirilgan vazifalar va rivojlantirish istiqbollari o‘rganilib chiqilgan. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar, kreditlar, soliq imtiyozlari hamda erishilayotgan yutuqlar tahlil qilinib, ishbilarmonlik muhiti yaxshilanishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Ishbilarmonlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, o‘rta tadbirkorlik, kredit, soliq, soliq imtiyozlari, tadbirkorlik muhiti, xususiy mulk.

В данной статье рассматриваются научные основы развития предпринимательства в условиях либерализации экономики, значение повышения его потенциала, реализованные задачи и перспективы развития. Проанализированы инвестиции, направляемые на осуществление предпринимательской деятельности, кредиты, налоговые льготы и достигнутые успехи, высказаны мнения об улучшении деловой среды, создании широких возможностей для малого бизнеса и частных предпринимателей.

Ключевые слова. Предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство, среднее предпринимательство, кредит, налоги, налоговые льготы, предпринимательская среда, частная собственность.

This article examines the scientific foundations of entrepreneurship development in the context of economic liberalization, the importance of increasing its potential, implemented tasks, and development prospects. Investments, loans, tax benefits, and achievements directed towards the implementation of entrepreneurial activity are analyzed, and opinions are expressed about the improvement of the business environment and the creation of broad opportunities for small businesses and private entrepreneurs.

Keywords. Business, small business, private entrepreneurship, medium-sized entrepreneurship, credit, tax, tax benefits, business environment, private property.

Tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyat farovonligiga, xususiy mulk daxlsizligining ta’minlanishi fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslari mustahkamlanishiga bevosita xizmat qiladi. U iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadbirkorlik faoliyati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik jarayoni milliy iqtisodiyotning umumiy iqtisodiy salohiyatini mustahkamlab, uning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish va xususiy mulkni himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida eksportga yo‘naltirilgan tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmining o‘shishiga qo‘shayotgan hissasi ortmoqda. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish va xususiy mulkni himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida tadbirkorlikning jamiyatda ijtimoiy — iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omili ekanligini amaliyotda isbotlab bermoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, “...tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa, xorijdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim”, deb ta’kidlaydilar.

Tadbirkorlik faoliyati orqali resurslarni samarali iqtisodiy faoliyatga aylantirilishida muhim rol o‘ynaydi. Tadbirkorlar bozor imkoniyatlarini aniqlaydi, tavakkalchilikka boradi va o‘shishni rag‘batlantiruvchi innovatsiyalarni joriy etadi.

Umuman tadbirkorlik faoliyati va uning milliy iqtisodiyotda barqarorligini saqlash muammosi uzoq yillardan buyon iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti bo‘lib kelgan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ilmiy asoslari iqtisodchi olimlardan Smit A., Sey J.B., Keyns Dj.M., Shumpeter Y., asarlarida o‘z ifodasini topgan. O‘zbekistonda esa, ko‘pgina iqtisodchi olimlardan O‘lmasov A., G‘ulomov S.S., Abdullaev Y.A., Husanov R.X kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yuritish shakllari samaradorligi, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tegishli mol-mulki va daromadini oshirish yo‘llarining ayrim jihatlari yoritilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev 2024 yil 20 dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan videoselektor shaklida o‘tgan muloqotda so‘zlagan nutqida, “Keng ko‘lamli islohotlarimizning ilk kunlaridan boshlab, men bir fikrni doim ta’kidlab kelaman, tadbirkorlikni rivojlantirish-biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam... Biz katta iqtidor egalari bo‘lgan biznes vakillarini asrab-avaylashimiz zarur. Ular biz uchun juda qadrlı insonlar”, deb ta’kidlab o‘tganligi mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan siyosatning ustuvor ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini Ular bandlikni ta‘minlash, daromadlarni shakllantirish va hududiy rivojlanishga katta hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni tahlilining ko‘rsatishicha, iqtisodiyotni isloh qilish va aholi daromadlarining yuqori darajasini ta‘minlashda tadbirkorlik subyektlarining ahamiyati va roli muhim o‘ringa ega. Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida tadbirkorlikning ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aksariyat qismi oilaviy korxonalar shaklida ish yuritilmoqda. Yevropa davlatlari yalpi milliy mahsulotining 40-50 foizini, Osiyo mamlakatlarida 65 foizdan 82 foizgachasini, Lotin Amerikasida 70 foizga yaqinini oilaviy biznes ishlab chiqaradi. AQSH iqtisodiyotida uning ulushi 95 foizdan ziyod miqdorni tashkil etadi. Iqtisodiyoti rivojlangan ko‘plab mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi tadqiqotlarni olib boruvchi, uning manfaatlarini himoyalovchi hamda kichik biznes va xususiy korxonalarining faoliyat ko‘rsatishi borasida tajriba almashish uchun munozara maydonlarini tashkil etuvchi maxsus birlashmalar mavjud. Bunday yondashuv aholini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilishni kengaytirish, oilaviy an‘analarni oilaviy tadbirkorlar sulolasini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025 yildagi PF-50-sonli Farmoni bilan iqtisodiyotda kichik va o‘rta biznesning o‘rnini oshirish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash va yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar belgilandi. Bunda 2025 yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan bo‘lib, asosan, kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda – 34 foizga, eksportda – 34 foizga, aholi bandligini ta‘minlashda – 75 foizga etkazish; kamida 600 nafar kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ularni "champion" tadbirkorlarga aylantirish; ichimlik va oqova suv, yo‘l, qurilish, kommunal xo‘jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirish; kamida 100 ta kichik va o‘rta biznes subyektlarida brend mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish; kichik biznes subyektlari ishtirokida kamida 200 ta startap loyihalarni amalga oshirish kabilar ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, 2025 yil 1 maydan boshlab "o‘zini o‘zi band qilgan shaxs – yakka tartibdagi tadbirkor – kichik biznes – o‘rta biznes – yirik korxonalar" zanjiri asosida tadbirkorlik subyektlarining yiriklashuvini rag‘batlantirish bo‘yicha bir qator mexanizmlar joriy etiladi. Bunda, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda, davlat boji undirilmasligi; o‘z faoliyatini tegishincha yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirmalar yoki kichik korxonalar toifasigacha yiriklashtirgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 50 million so‘mgacha, Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida – 150 million so‘mgacha garovsiz kreditlar berilishi; o‘z faoliyatini tegishincha o‘rta yoki yirik biznes toifasigacha yiriklashtirgan tadbirkorlik subyektlariga – bir yil davomida qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) yetti kun muddatda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Bunda Qoraqalpog‘istonda yangidan tashkil etilgan va hisob raqamida yetarli mablag‘lar aylanmasiga ega bo‘lmagan kichik va o‘rta biznes subyektlariga ularning garov ta‘minotidan kelib chiqib kredit ajratishga ruxsat berilgan. Shuningdek, tez va yuqori sur‘atlarda o‘sayotgan tadbirkorlik subyektlarini "champion" tadbirkorlarga aylantirish dasturini amalga oshirish rejalashtirilgan. Bunda quyidagi mezonlarga javob beradigan tashkilotlar ro‘yxati shakllantirilishi ko‘rsatilgan. Bunda tuman (shahar) darajasida – har bir tuman (shahar)da kamida 2 tadan yillik aylanmasi 10 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan va 50 tadan ortiq ish o‘rni yaratgan tadbirkorlik subyektlari; Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida – har bir hududda kamida 5 tadan yillik aylanmasi 100 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan va 500 tadan ortiq ish o‘rni yaratgan tadbirkorlik subyektlari; respublika darajasida – yillik aylanmasi 1 trillion so‘mdan yuqori bo‘lgan va 5 mingdan ortiq ish o‘rnini yaratgan tadbirkorlik subyektlarini mezonlar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank 2025 yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 120 trillion so‘m, shu jumladan, tadbirkorlik dasturlari doirasida 22 trillion so‘m miqdoridagi kredit mablag‘lari ajratilishini ta‘minlashi ko‘zda tutilgan. 2025 yil 1 maydan boshlab 20 ta tumanda Sanoatni jadal rivojlantirish bo‘yicha loyiha ofislari (ro‘yxat bo‘yicha) tashkil etiladi. Ular kichik va

o‘rta biznes subyektlariga konsultatsiya xizmatlarini ko‘rsatadi va ular uchun muhandis, texnolog, dizayner, buxgalter, marketologlarni hamda boshqa malakali xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb qilish kabi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Yuqoridagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025 yildagi PF-50-sonli Farmoni kichik va o‘rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan bo‘lib, ushbu farmon tadbirkorlik salohiyatini oshirishda salohiyat ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholining tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda ishbilarmonlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda amaliy yordam ko‘rsatilish belgilangan. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta‘minlashning muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda kichik biznes taraqqiyoti natijasida ularning mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot salmog‘idagi ulushining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

2025 yilning 1 may holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari jami 381 ming 890 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu haqda Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan ma‘lum qilindi.

Yil boshidan beri tadbirkorlik subyektlari soni yanada oshgani kuzatilmoqda. Aniqroq aytganda, so‘nggi to‘rt oy ichida bu ko‘rsatkich 20 ming 97 taga ko‘paygan. Bu mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Statistika tahlil qilinganda, tadbirkorlar orasida eng katta qismini savdo sohasida faoliyat yuritayotganlar tashkil qilayotgani ma‘lum bo‘ldi. Hozirgi vaqtda savdo bilan shug‘ullanayotgan korxonalarining ulushi 38,2 foizni tashkil etadi. Bu esa respublikamizda tadbirkorlikning asosiy qismi aynan savdo sohasiga yo‘naltirilganidan dalolat beradi. Hozircha bu yo‘nalishda jami 145 ming 939 ta subyekti faoliyat olib bormoqda. Tijorat bilan bir qatorda, sanoat sohasida ham tadbirkorlar soni ortib bormoqda. Bugungi kunda bu tarmoqda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 56 ming 440 taga etgan. Bu esa respublikamiz sanoatidagi kichik biznes va xususiy sektorning rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar soni ham salmoqli ko‘rsatkichlarni qayd etmoqda. Bu tarmoqda hozirda 32 ming 242 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, bu sohada tabiiy resurslarni samarali boshqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda eksport salohiyatini oshirish yo‘lida kichik biznes katta ahamiyat kasb etmoqda. Qurilish sohasida esa 28 ming 107 ta subyekti ish olib boryapti. Yangi binolar, turar joylar va infratuzilma obyektlari qurishda tadbirkorlarning ishtiroki tobora ortib bormoqda. Bu sohada tadbirkorlar faolligi shaharlarning zamonaviy qiyofasini shakllantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohasida ham tadbirkorlik subyektlari soni tobora ko‘paymoqda. Hozirgi vaqtda bu yo‘nalishdagi korxonalar soni 27 ming 784 tani tashkil etadi. Bunda asosan mehmonxonalar, restoranlar, kafe va boshqa turdagi umumiy ovqatlanish obyektlari nazarda tutilmoqda.

Transport, tashish va saqlash sohasida 16 ming 188 ta tadbirkorlik subyekti mavjud bo‘lib, ular ham iqtisodiyotimizning muhim qismiga aylanib bormoqda. Axborot va aloqa sohasidagi tadbirkorlar soni esa 10 ming 16 tani tashkil qilmoqda. Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasi ham tadbirkorlarni jalb qilishda jadal sur‘atlarda o‘sib, hozirgi vaqtda 9 ming 532 ta subyekti faoliyat ko‘rsatmoqda. Davlat tomonidan tadbirkorlarga yaratilayotgan imtiyozlar, moliyaviy ko‘mak va sharoitlar bu sohaning yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, aholining ish bilan bandligini ta‘minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va mamlakat taraqqiyotini yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda biznes va boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi qarorlarni qabul qilinishida ularning fikrini to‘laroq hisobga olish muhim hisoblanadi. Ayniqsa iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoqlarni modernizatsiyalashda va innovatsion rivojlanish

jarayonida kichik biznesning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir:

1. Kichik biznesning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish. Ma’lumki, mamlakatimizdagi kichik biznes tarkibida asosiy salmoqni qishloq xo’jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish, sanoat, qurilish va aholiga maishiy xizmat ko’rsatish korxonalari egallaydi. Biroq ushbu korxonalarining aksariyat qismi xomashyoni birlamchi qayta ishlaydigan oddiy ishlab chiqarishga asoslangan bo’lib, bu mazkur sohaning yanada rivojlanishiga to’sqinlik qilmoqda. Bu borada klaster usuliga o’tish, kichik biznes tarkibini, uning texnik va texnologik tuzilmasini, yaxshilash, xomashyoni birlamchi qayta ishlaydigan oddiy ishlab chiqarishdan yuksak texnologik ishlab chiqarishga o’tish hamda ilg’or g’oyalar, “smart” texnologiyalar va nou-xouvlarga asoslangan innovatsion taraqqiyotning yangi modeliga bosqichma-bosqich o’tishni tezlashtirish zarur bo’ladi.

2. Kichik korxonalarining sekin-asta yirik korxonalariga o’sib o’tishini rag’batlantiruvchi mexanizmning ishlab chiqilishi va yo’lga qo’yilishi. Zero, kichik biznes korxonalari qanchalik keng imkoniyat va afzalliklarga ega bo’lmasin, iqtisodiyot uchun tarmoqlarni tashkil etuvchi yirik korxonalar ham shunchalik zarurdir. Chunki, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini qo’llash, “miqyos samarasi” orqali mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlariga ega bo’lish, raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim o’rin tutuvchi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini zarur mablag’ va texnik shart-sharoitlar bilan ta’minlash yirik korxonalarda nisbatan samarali amalga oshadi. Shunga ko’ra, kichik biznes korxonalarining sekin-asta moliyaviy jihatdan mustahkamlanib, o’z ish faoliyatini kengaytirib, yirik korxonalariga aylanishini rag’batlantirib borish muhim hisoblanadi. Shu o’rinda Yaponiyadagi Masusiti firmasining bundan 85 yil oldin tashkil topgan chog’idagi narxi atigi 100 iena bo’lib, uning jamoasi 3 kishidan iborat bo’lganligi, bugungi kunda ushbu firma asosida tarkib topgan “Panasonic” kompaniyasining sotuv hajmi yiliga 72 mlrd.doll.ni tashkil etishi, korporatsiyada, shu jumladan jahondagi 46 mamlakatning 230 ta shu’ba korxonasida 290493 kishi ishlashini misol qilib keltirish mumkin.

3. Yirik korxonalarining kichik biznes bilan kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash. Yirik korxonalar uchun o’z faoliyatida zarur bo’lgan barcha mahsulot, butlovchi qism yoki ehtiyot qismlarni o’zi ishlab chiqarishi, yoki turli xizmatlarni o’zi tashkil qilishi.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo’yicha davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim. Birinchidan, tadbirkorlik subyektlari mahsulotlarini eksportga chiqarishda logistik markazlar xizmatidan samarali foydalanish, ya’ni marketing xizmatini sifatli rivojlantirish va shu orqali jahon bozorlarida milliy mahsulotlarimiz raqobatbardoshligini ta’minlash; ikkinchidan, tadbirkorlarga «bir darcha» tamoyili asosida eksportni rivojlantirish uchun davlat xizmatini takomillashtirish; uchinchidan, tadbirkorlik uchun ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag’batlantirishga katta e’tibor qaratish lozimdir. Bunda davlat va xususiy tadbirkorlik sektorining o’zaro (korporativ) hamkorligiga asoslanish, ya’ni ilm-fan yutuqlaridan keng va samarali foydalanish; tadbirkorlik faoliyatida yangi innovatsion texnologiyalarni qo’llash; ishlab chiqarishga eng zamonaviy texnologiyalarini joriy etish; milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025 yildagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi ma’lumotlari